



G'AFUR G'ULOM ASARLARIDA EMOTSIONAL-EKSPRESSIV SO'ZLARNING QO'LLANILISHI ("SHUM BOLA" QISSASI ASOSIDA)

M.Ahmadjonova

FarDU magistranti

Anotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy matnda qo'llangan hissiy-ta'siriy so'zlarning uslubiy xususiyatlariga bag'ishlangan. Tadqiqotga G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi olingan bo'lib, asr nutqida qo'llangan ijobiy baho va salbiy baho ifodalovchi so'zlar o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *ekspressiv, emotsional, ijobiy baho, salbiy baho, uslubiy bo'yog'or bor so'zlar, neytral.*

G'afur G'ulom o'z she'rlari, hikoyalari, qissalari, tarjimalari, badiiy publitsistikasi, ilmiy-tadqiqot maqolalari bilan o'zbek adabiy tilining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan. Adib asarlarida oddiy xalq tilada qo'llanadigan so'zlardan mohirona foydalanadi.

"G'afur G'ulom barcha asarlari tilini shu davrga mansub boshqa adiblar tiliga qiyoslagan holda o'rganib, hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik leksik morfologik sintaktik me'yorlarini belgilashdagi xizmatlarini ochib berish bugungi o'zbek tilshunosligi oldidagi dolzarb vazifadir". [1, 33-35-betlar]

G'afur G'ulom o'z asarlarida ijobiy, salbiy ma'nolarni ifodalovchi ekspressiv-emotsional bo'yoqdor, neytral ma'no ifodalovchi ekspressiv-emotsional bo'yoqsiz so'zlar va iboralardan badiiy vosita sifatida foydalangan.

Masalan, *jonim, mulla aka oppoqinam bo'tam do'ndiqqinam, satang, tantiq, juvon tushmagur, tering sangobda chirigur.*

So'zlar bir predmetning yoki voqeaning nomini atashdan tashqari mensimaslik, g'azab, nafrat, kesatq, kinoya, maxara hamda hurmat, erkalash, xushmuamalaklik, suyish, tantanavorlik kabi ma'nolarni ham ifodalaydi.

"Uslubiy bo'yog'i bor so'zlardan nutqda his-tuyg'ularni, so'zlovchoning voqelikka nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatini ifodalash maqsadida foydalaniladi"[2, 211-bet].

Bo'yoqdor leksik qatlam ijobiy yoki salbiy ma'no ifodalashiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1) ijobiy emotsional-ekspressiv so'zlar;

2) salbiy emotsional-ekspressiv so'zlar;

So'zlarning hissiy-ta'siriy ma'nosi kontekstda ko'rinadi.



"Ijobiy bo'yoqdor leksema so'zlovchining borliq hodisasigaijobiy munosabatini ifodalaydi va ular sememalarida tegishli ifoda sememalari ijobiy bo'ladi" [3, 115-bet].

G'afur G'ulom asarlari tilida emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'z va so'z birikmalarining asosiy qismini erkalash leksikasi tashkil etadi. Ayniqsa "Shum bola" qissasida:

...- *Kel-a, **bo'yingdan girgitton bo'lib ketay**, seni qaysi shamol uchirdi, akam tirilib keldimi, haligina qovog'im uchib turgan edi, -dedi amma.*

- *Ha, **balli azamat**, necha kundan buyon ko'zim uchi, yo'lpashsha aylanib yurgan edi, haytovur yaxshilikka ko'rinadi. Sen kelar ekansan, **balli-balli**, - dedi pochcham...*[4, 12-bet]

Hurmat:

...-**Boy buva**, - dedim, - endi-ku, savdomoz pishdi. Shariat yuzasidan mol sotganda hamma aybini aytib sotsa halol bo'lar ekan...[4, 63-bet].

... - *Xo'p, **taqsir!** Bitta jonimiz piri komilga qurbon bo'lsin, -dedim...*[4, 58-bet].

Salbiy munosabatni ifodalovchi lug'aviy birliklarda do'kidh, haqorst qilish mensimaslik, kinoya, piching, kesatiq kabi ma'nolar ifodalaniladi.

Asarda qo'llangan piching, kesatiqqa boy ekspressiv-emotsional do'zlarning muhim o'rni bor. Masalan, Oysha yallachining kundoshi Latifaxonga aytga gaplarida ko'ridhimiz mumkin:

...*Menga biroz quluq bering, **oyimposhsha**, siz o'zingiz shunday soddamisiz yoki marg'ilonliklarning hammasi shunday sofda bo'ladimi?*...

[4, 113-bet].

...*Hoji bobo:*

- *Ha, **yetim, taylog'im**, qaysi go'rlarda besaru somon yo'qolib ketding? Yetimning otasi ko'p deganlar. Ha shunaqa. Bitta-yarimta ota topilib qoldimi?*

[4, 118-bet].

Kuzatishlarimiz natijasida asar personajlari: ayollar va erkaklar nutqida farqlanadigan quyidagi salbiy emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega lug'aviy birliklarni uchratdik.

Ayollar nutqida uchraydigan haqorat so'zlar:

...-*Hoy, **junonmarg, zumrasha**, tag'in ko'chagami? Bu yoqqa kel, olovni jo'nashtirib ket, tutay berib ko'zimni kpr qila yozdi...*[4, 11-bet].

...-*Ming **la'nat** hoji degan ismingga, sho'rlik peshonam qursin. Dod! Musulmonlar! ...* [4, 115-bet].

Erkaklar nutqida uchraydigan haqorat so'zlar:





...- Ha, **xizimating boshingni yesin!** - dedi domla. - Eshakni so'yib qo'yibsanku, **padar la'nat!** Men bu eshkani Buxoroyi sharifdan uch tilloga olgan edim... [4, 44-bet].

... -Nima deyapsan, **haromi**, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib, mening birdan-bir boqib qo'ygan uloqchi otim bilan suv tashiysanlarmi, **padar la'natilar?**... [4, 66-bet].

...- Voy **bachchag'ar-ey**, tim urdingmi, buni qayoqdan olding? Ha, mayli, kira qol, -dedi kal Asra... [4, 140-bet].

Asrda bundan tashqari salbiy munosabat bildiruvchi haqorat so'zlar faqatgina shaxsga emas, hayvonlarga qarata ham aytilgan:

...*Chang orasidan Omonning yig'lamsirab:*

- Qur-ey, ey **harom o'lgurlar**, qur-ey, - degan mungli ovozino eshitdim...

Xulosa qilib aytganda asrdagi emotsional ifodalovchi so'zlar badiiy asar qahramonlarining harakterini ochib berishdagi uslubiy vosita vazifasini bajaradi. Ushbu leksik vositalar so'zning ma'noli, bo'yoqdor chiqishi uchun katta ahamiyat kasb etadi. G'afur G'ulom asarlarida jonli so'zlashuv tilining tuganmas manbalarida mohirona foydalana olgan. Buesa adibning so'z ustasi ekanlagini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tili va adabiyoti. Nurmonov A. G'afur G'ulomning hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishidagi xizmatlari(nasriy asarlar asosida). 2003. 5-son.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.
3. Sayfullaev R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2010
4. G'.G'ulom. Shum bola. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2019.

